



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 58 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<b>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</b>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<b>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<b>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</b>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<b>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</b>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<b>Madumarov Jahongir Urinbayevich</b>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<b>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</b>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<b>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</b>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<b>Turdibekova Risolat Shermatovna</b>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<b>Tursunova Durdona</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<b>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</b>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<b>Yusupova Muxabbat Anatolevna</b>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<b>Рысова Галия Байбулатовна</b>	



# TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi  
Termiz davlat pedagogika instituti tasviriy san'at va  
muhandislik grafikasi kafedrasida talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tasviriy san'at fanlarini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, grafik dasturlar, multimedia vositalari va onlayn platformalardan foydalanish o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda muhim omil ekanligi yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi, ularning tasviriy san'at ta'limidagi afzalliklari va amaliy qo'llash imkoniyatlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, raqamli texnologiyalar, multimedia, grafik dasturlar, innovatsion ta'lim, badiiy ta'lim, ijodkorlik, pedagogik texnologiyalar, vizual tafakkur, elektron ta'lim.

**Abstract:** This article examines the pedagogical opportunities of using digital technologies in teaching fine arts subjects. It highlights the importance of information and communication technologies, graphic software, multimedia tools, and online educational platforms in developing students' artistic and aesthetic thinking, fostering creativity, and supporting independent learning activities. Furthermore, the effectiveness of technology-based instruction, its advantages, and practical applications in fine arts education are analyzed from a scientific and pedagogical perspective. The study demonstrates that digital technologies contribute to improving the quality of fine arts education and creating innovative learning environments that enhance students' engagement and creative potential.

**Key words:** fine arts, digital technologies, multimedia, graphic software, innovative education, art education, creativity, pedagogical technologies, visual thinking, e-learning.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования цифровых технологий в процессе преподавания дисциплин изобразительного искусства. Освещается роль информационно-коммуникационных технологий, графических программ, мультимедийных средств и онлайн-платформ в развитии художественно-эстетического мышления обучающихся, формировании их творческих способностей и организации самостоятельной учебной деятельности. Кроме того, с научно-педагогической точки зрения обосновываются эффективность занятий, организованных на основе цифровых технологий, их преимущества и практические возможности применения в художественном образовании.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, цифровые технологии, мультимедиа, графические программы, инновационное образование, художественное образование, творчество, педагогические технологии, визуальное мышление, электронное обучение.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlantirishi ta'lim mazmuni, shakli va metodlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, o'quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va innovatsion tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ham zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at ta'limi o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq an'anaviy o'qitish metodlari ayrim hollarda o'quvchilarning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini to'liq ta'minlay olmaydi. Shu sababli ta'lim jarayoniga kompyuter grafikasi, multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar, virtual ko'rgazmalar, elektron darsliklar va onlayn ta'lim platformalarini tatbiq etish zarurati ortib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar tasviriy san'at fanlarini o'qitishda murakkab badiiy tushunchalarni vizual tarzda namoyish etish, san'at asarlarini yuqori sifatda tahlil qilish hamda o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Ayniqsa, grafik muharrirlar, uch o'lchamli modellashtirish dasturlari va sun'iy intellekt elementlariga asoslangan ilovalar yordamida o'quvchilar zamonaviy san'at va dizayn yo'nalishlariga oid bilimlarni amaliy faoliyat orqali o'zlashtirishlari mumkin.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim tizimlari va raqamli o'quv platformalaridan foydalanish ko'lami kengayib bormoqda. Bu esa tasviriy san'at ta'limi mazmunini boyitish va uning samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkuri, ijodiy faolligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritish hamda ta'lim jarayonida qo'llashning samarali usullarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoni mazmunini boyituvchi va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalari va maxsus grafik dasturlardan foydalanish o'quvchilarning san'at asarlarini idrok etish darajasini oshiradi hamda ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

An'anaviy darslarda rassomlar hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar asosan matn va reproduksiyalar orqali berilgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar dunyoning mashhur muzeylari, galereyalari va san'at markazlariga virtual sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, tasviriy san'at darsida Leonardo da Vinchi, Kamoliddin Behzod yoki Pablo Pikassoning asarlarini o'rganishda yuqori aniqlikdagi raqamli tasvirlardan foydalanish o'quvchilarga asarning rang uyg'unligi, kompozitsion tuzilishi va badiiy yechimini batafsil tahlil qilish imkonini yaratadi. Natijada o'quvchilar san'at asarining nafaqat tashqi ko'rinishini, balki uning mazmun-mohiyatini ham chuqurroq anglay boshlaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning vizual xotirasini rivojlantiradi, murakkab badiiy tushunchalarni osonroq o'zlashtirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklga keltiradi.

Bugungi kunda Adobe Photoshop, CorelDRAW, Adobe Illustrator, Autodesk SketchBook, Krita va boshqa grafik dasturlar tasviriy san'at ta'limining muhim vositalariga aylanib bormoqda. Ushbu dasturlar o'quvchilarga nafaqat an'anaviy tasviriy faoliyatni raqamli muhitda davom ettirish, balki yangi ijodiy imkoniyatlarni ham kashf etish imkonini beradi. Masalan, "Rangtasvir asoslari" mavzusini o'rganishda o'quvchilar Photoshop dasturida turli rang kombinatsiyalarini yaratishi, ranglarning o'zaro uyg'unligini sinab ko'rishi va kompozitsion yechimlarni mustaqil ishlab chiqishi mumkin. Bunday amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda rang hissi, estetik did va badiiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, vektorli grafika dasturlaridan foydalanish orqali o'quvchilar logotiplar, emblemalari, milliy naqshlar va dizayn elementlarini yaratish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning nafaqat badiiy, balki kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Muhimi, raqamli grafik vositalar o'quvchilarga o'z xatolarini tezda tuzatish va turli variantlarni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Bu esa ijodiy izlanish samaradorligini yanada oshiradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Multimedia vositalari tasviriy san'at darslarida murakkab mavzularni tushuntirishning samarali vositalaridan biridir. Video materiallar, animatsiyalar, elektron taqdimotlar va interaktiv tasvirlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda o'rganilayotgan mavzuning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan, "Sharq miniatyura san'ati" mavzusini o'qitishda o'qituvchi elektron taqdimot orqali miniatyura maktablarining rivojlanish bosqichlarini, mashhur miniatyurachilar ijodini va asarlarning badiiy xususiyatlarini ketma-ket namoyish etishi mumkin. Bunda har bir tasvirning muhim elementlari kattalashtirilib ko'rsatiladi va ular bo'yicha tahliliy izohlar beriladi. Bundan tashqari, videoroliklar orqali rassomning asar yaratish jarayoni bosqichma-bosqich namoyish etilishi o'quvchilarda amaliy tasvirlash texnikalariga oid tasavvurlarni shakllantiradi. Natijada nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashadi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi oshadi.

Virtual ko'rgazmalar va elektron resurslardan foydalanish raqamli ta'lim muhitida tasviriy san'at fanlarini o'qitishning innovatsion yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Virtual ko'rgazmalar yordamida o'quvchilar geografik masofa yoki moddiy imkoniyatlardan qat'i nazar, dunyoning mashhur muzeylari va san'at galereyalaridagi eksponatlar bilan tanishishi mumkin. Masalan, Parijdagi Luvr muzeyi yoki Rossiyadagi Ermitaj muzeyining virtual platformalari orqali o'quvchilar san'at durdonalarini mustaqil ravishda kuzatadi, ular haqida ma'lumot




oladi va tahliliy topshiriqlarni bajaradi. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantirish bilan birga, san'atga nisbatan qiziqishni ham kuchaytiradi. Elektron kataloglar, raqamli kutubxonalar va onlayn ta'lim platformalari esa o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda ham bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa ta'lim jarayoni faqat auditoriya bilan cheklanib qolmay, uzluksiz o'quv faoliyatiga aylanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari tasviriy san'at sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Turli sun'iy intellekt dasturlari yordamida tasvirlar yaratish, ranglarni avtomatik tanlash, kompozitsion yechimlarni tavsiya etish va dizayn loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchi ma'lum bir mavzu bo'yicha g'oya ishlab chiqadi va sun'iy intellekt dasturi uning tavsifiga mos bir nechta tasvir variantlarini yaratadi. Shundan so'ng o'quvchi ushbu variantlarni tahlil qiladi, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlaydi hamda o'zining yakuniy ijodiy ishini yaratadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni tayyor mahsulot iste'molchisi emas, balki tahlil qiluvchi va ijodiy qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalarini tasviriy san'at ta'limiga integratsiya qilish istiqbolli pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi amaliy kuzatishlar orqali ham o'z tasdig'ini topmoqda.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning faolligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. O'quvchilar dars jarayonida ko'proq mustaqil izlanadi, turli axborot manbalaridan foydalanadi va ijodiy topshiriqlarni bajarishga intiladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Har bir o'quvchi o'z qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib topshiriqlarni bajarishi, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan amaliy mashqlarni tanlashi mumkin. Bu esa ta'limning differensiallashuvi va individuallashuvini ta'minlaydi. Natijada raqamli texnologiyalar tasviriy san'at ta'limining sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omiliga aylanadi.



1-rasm: Raqamli texnologiyalar asosida tasviriy san'at ta'limini rivojlantirish komponentlari

Ushbu chizmada tasviriy san'at ta'limida raqamli transformatsiyaning asosiy elementlari aks ettirilgan. Multimedia vositalari o'quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etishga xizmat qiladi. Grafik dasturlar o'quvchilarning amaliy-ijodiy faoliyatini rivojlantirib, ularda raqamli tasvirlar yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi. Onlayn platformalar ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlab, masofaviy ta'limni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Virtual muhitlar san'at asarlarini chuqurroq o'rganish hamda virtual ko'rgazmalarda ishtirok etish imkonini yaratadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa yangi g'oyalarni ishlab chiqish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga yordam beradi. Mazkur omillarning o'zaro uyg'unligi tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**1-jadval: Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi**

Raqamli texnologiya turi	Qo'llaniladigan vositalar	Darsda qo'llash shakli
PowerPoint, Prezi	Yangi mavzuni tushuntirish	Murakkab sodda va tushunarli yoritadi
PDF, interaktiv	Mustaqil ta'lim	Istalgan vaqtda foydalanish imkonini beradi
Adobe Photoshop	Amaliy mashg'ulotlar	Raqamli tasvir yaratish imkonini beradi
CorelDRAW, Illustrator	Dizayn va kompozitsiya ishlari	Murakkab grafik elementlarni yaratishga yordam beradi
Krita, Autodesk SketchBook	Tasviriy faoliyat	An'anaviy rasm chizishning elektron shaklini yaratadi
Blender, ketchUp	Hajmli obyektlarni tasvirlash	Uch o'lchamli modellar yaratish imkonini beradi
Louvre Virtual Tour, Google Arts & Culture	San'at asarlarini o'rganish	Dunyo san'at durdonalari bilan tanishtiradi
Onlayn galereyalar	Mustaqil tahlil ishlari	Masofadan turib san'at asarlarini kuzatish imkonini beradi
YouTube education,	Mavzuni mustahkamlash	Amaliy jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'rsatadi
Powtoon,	Badiiy jarayonlarni tushuntirish	Harakatdagi obyektlarni namoyish etadi
Google Classroom, Moodle	Topshiriqlar va nazorat ishlari	Ta'limni masofadan tashkil etish imkonini beradi
Kahoot, Quizizz	Bilimlarni baholash	O'quvchilar faolligini oshiradi
Google Sites, Mahara	Ijodiy ishlarni jamlash	O'quvchining rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi
ChatGPT, Adobe Firefly	G'oya yaratish va ishlari	Muqobil badiiy yechimlarni taklif qiladi
ibis Paint X, PicsArt	Uy vazifalari va amaliy topshiriqlar	Istalgan joyda ishlash imkonini beradi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, grafik muharrirlar va raqamli rasm chizish dasturlari o'quvchilarning amaliy-ijodiy faoliyatini rivojlantirsa, virtual muzeylar va ko'rgazmalar ularning estetik dunyoqarashini kengaytiradi. Onlayn platformalar va interaktiv test tizimlari esa ta'lim jarayonini boshqarish hamda baholashning zamonaviy vositalari sifatida xizmat qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi tasviriy san'at fanlarini o'qitishda yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirib, o'quvchilarning kreativ salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, ijodkorligi va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, multimedia vositalari, grafik dasturlar, virtual ko'rgazmalar, elektron ta'lim resurslari hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda yuqori samaradorlikka ega. Raqamli texnologiyalar yordamida tasviriy san'at darslari yanada qiziqarli, interaktiv va amaliy yo'naltirilgan tus oladi. O'quvchilar san'at asarlarini chuqur tahlil qilish, grafik dasturlar orqali ijodiy loyihalarni amalga oshirish hamda zamonaviy san'at yo'nalishlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularda nafaqat badiiy kompetensiyalarni, balki axborot bilan ishlash, muammolarni hal qilish, kreativ fikrlash va raqamli savodxonlik kabi muhim tayanch kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Shuningdek, virtual muzeylar, onlayn platformalar va elektron resurslardan foydalanish ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlab, o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantiradi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi esa tasviriy san'at ta'limining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois tasviriy san'at ta'limi amaliyotida innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Abduqodirov A. A. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 248 b.
3. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2022. – 312 b.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 286 b.
5. Muslimov N. A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 354 b.
6. Ochilov M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 224 b.
7. Hasanov R. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 216 b.
8. Bulatov S. S. Tasviriy san'at asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 192 b.
9. Po'latov X. Kompyuter grafikasi va dizayn asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 284 b.
10. Yo'ldashev U. Multimedia texnologiyalari va ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 240 b.
11. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 336 p.
12. Bates A. W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2022. – 555 p.
13. Slavin R. E. Educational Psychology: Theory and Practice. – Boston: Pearson Education, 2023. – 624 p.
14. Arends R. I. Learning to Teach. – New York: McGraw-Hill Education, 2022. – 672 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.